

**Test topshirishga
imkon boru o'qishga
yo'qmi?**

4-betda o'qing ↘



**Yo'llanma berish tartibi
o'zgariganidan xabaringiz
bormi?**

6-betda o'qing ↘

INSON va qonun

2023-YIL
29-AVGUST
SESHANBA

№ 34 (1394)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



ADLIYA XABARI

**YANGI HAYOT UCHUN,
YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!**

**32
yil**

MUSTAQILLIK

BAYRAMI

QUTLUG' BO'LSIN!

**TOJKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI
DELEGATSIYASI
DAVLAT XIZMATLARI
MARKAZLARI FAOLIYATI
BILAN TANISHDI**

O'TGAN hafta Tojikiston Respublikasi adliya vaziri Muzaffar Ashuriyon boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonda ishchi tashrif bilan bo'ldi.



Tashrif doirasida delegatsiya Adliya vazirligi mas'ullari bilan birgalikda Chilonzor, Yunusobod va Qibray tumanlari davlat xizmatlari markazlari faoliyati bilan tanishdi.

Uchrashuv davomida har ikkala tomon davlat xizmatlari sohasida erishilgan yutuqlari bilan fikr almashishdi. Jumladan, elektron hujjat almashinuvining yo'lga qo'yilishi natijasida qog'oz va vaqt sarfining kamayishiga erishilgani, FHDY organlari va notarius tizimlari faoliyatining raqamlashtirilishi, kompazit va proaktiv davlat xizmatlari yaratilishi natijasida aholiga yaratilayotgan qulayliklar haqida aytib o'tildi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish tizimining takomillashtirilishi hamda "Litsenziya" axborot tizimida yaratilayotgan litsenziya, ruxsatnoma va xabardor qilish tartibidagi davlat xizmatlari natijasida tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, xorijiy fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga xorijiy konsulliklar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar, axborot xavfsizligi sohasida olib borilayotgan faoliyat hamda xalqaro hamkorlik yuzasidan batafsil ma'lumot berildi.

Samarali muloqot so'ngida tomonlar aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini tubdan isloh qilish, xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshiriladigan ishlar xususida hamkorlikni yo'lga quyish bo'yicha kelishib oldilar.

2 MUTAXASSIS MINBARI**SUBSIDIYA AJRATISH YAGONA
ELEKTRON PLATFORMA ORQALI AMALGA OSHIRILADI**

AHOLI va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratish bilan bog'liq barcha xizmatlar bosqichma-bosqich "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratishning yagona elektron platforma"ga o'tkaziladi.

Shuningdek, subsidiyalarni ajratishning maqsadga muvofiqligini elektron platforma orqali onlayn tekshirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

**O'QUVCHILAR 2 TA XORIJIY TIL VA BITTA
KASB-HUNARGA O'RGATILADI**

Qonunchilikka ko'ra, har bir tuman (shahar)dagi bittadan maktabda o'quvchilarni 2 ta xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti joriy etiladi.

MA'LUMOTLAR ONLAYN SHAKLLANTIRILADI

Sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi haqidagi ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligining "Tezkor ma'lumotlar" yagona axborot tizimida avtomatik ravishda onlayn shakllantiriladi. Bu bo'yicha ma'lumotnoma sudlanganlik muddati tugagan yoki sudlanganlik olib tashlangan sananing ertasidan kechiktirmasdan tegishli shaxsning YAIDXP (my.gov.uz)dagi shaxsiy kabinetiga avtomatik ravishda bepul yuboriladi.

**AYRIM HISOBOTLARNI QOG'OZ SHAKLIDA
TAQDIM ETISH TARTIBI BEKOR QILINADI**

Investitsiya majburiyatlarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni qog'oz shaklida taqdim etish tartibi bekor qilinib, tegishli davlat organlari va tashkilotlarning elektron bazasini "Davlat mulki" axborot tizimiga integratsiya qilish va tadbirkorlar elektron tizimiga kiritadigan ma'lumotlar orqali hisobotlarni olish yo'lga qo'yiladi. Har chorakda joyiga chiqqan holda investitsiya majburiyatlarining bajarilishini oraliq monitoring qilish tartibi bekor qilinadi.

**MAHSULOTLARNING ULGURJI SAVDOSI
XABARDOR QILISH TARTIBIDA AMALGA
OSHIRILADI**

Tamaki mahsulotining ulgurji va chakana savdosi, pivo mahsulotining ulgurji savdosi xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi. Bundan alkogol mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi bo'yicha litsenziya yoki xabarnomaga ega bo'lgan subyektlar mustasno.

**BANK USTAV KAPITALINING ENG KAM
MIQDORI OSHIRILADI**

Qonunchilikka ko'ra, bank ustav kapitalining eng kam miqdori 200 milliard so'mni tashkil etishi kerak. Ilgari bank ustav kapitalining eng kam miqdori 100 milliard so'mni tashkil etishi lozim edi.

TALON BERISH BEKOR QILINADI

Yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlar jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini texnik ko'rikdan o'tkazish faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalariga texnik ko'rikdan o'tganligi to'g'risida talon berish amaliyoti bekor qilinadi (xorijiy davlatlarga ishga yuboriladigan texnikalardan tashqari).

KUTUBXONA VA KINOTEATRLAR TASHKIL ETILADI

Bosqichma-bosqich zamonaviy jihozlangan kutubxonalar va kinoteatrlar tashkil etiladi. Shuningdek, musiqa cholg'uchiligi va ashula ijrochiligi bo'yicha pullik maxsus kurslarda o'qitish tizimi joriy etiladi.

ZILZILABARDOSHLIKKA TA'SIR QILADIGAN KONSTRUKSIYALAR ANIQLANADI

Qonunchilikka ko'ra, quyidagilarni aniqlash boshlanadi:
– seysmik faol zonada joylashgan seysmik xavfsizligi III-IV toifaga kiruvchi ko'p kvartirali uylardagi umumiy foydalaniladigan joylarda (zinapoya yo'laklari, cherdak va umumiy foydalanishdagi oshxonalarda) o'zboshimchalik bilan qurilgan konstruksiyalar;
– ko'p kvartirali uylarning, shu jumladan ularning yerto'la va birinchi qavatidagi zilzilabardoshlikka ta'sir qiluvchi konstruksiyalarga o'zboshimchalik bilan kiritilgan o'zgartirishlar.

**IJRO ETUVCHI HOKIMIYATNING MARKAZIY APPARATLARI
ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMIGA O'TKAZILADI**

"Raqqamli hukumat" tizimi doirasida, ijro etuvchi hokimiyatning markaziy apparatlari, qog'ozsiz ish yuritishga o'tish jarayonini jadalashtirish maqsadida "ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi negizida ishlab chiqilgan "edo.ijro.uz" moduli orqali elektron hujjat aylanish tizimiga o'tkaziladi.

Shuningdek, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari axborot tizimlarida "Raqqamli hukumat" tizimining yagona identifikatorlari hamda ma'lumotnomalar va tasniflagichlar registri axborot tizimida joylashtirilgan yagona umumdavlat ma'lumotnomalar va tasniflagichlardan foydalanishlari shart bo'ladi.

**HUQUQBUZARLIKLAR HAQIDA XABAR BERGANLAR
RAG'BATLANTIRILADI**

Aholi tomonidan Energetika vazirligining Internetdagi maxsus axborot tizimiga yuborilgan elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar haqidagi fotosuratlar va videoyozuvlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Bunda, huquqbuzarliklar to'g'risidagi fotosuratlar va videoyozuvlarni yuborgan shaxslar pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi.

Shuningdek, huquqbuzarlik to'g'risidagi fotosuratlar va (yoki) videoyozuvlardagi huquqbuzarlarning shaxsini aniqlash Energetika vazirligining hududiy organlari so'roviga asosan ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**MAKTAB DIREKTORLARIGA BIR QATOR
HUQUQLAR BERILADI**

Qonunchilikka ko'ra, quyidagilar amalga oshiriladi:

- maktab direktoriga o'z o'rinbosarlarini ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, ajratilgan umumiy soatlar doirasida o'quv rejalariga 15 foizgacha o'zgartirish kiritish masalalarini mustaqil hal qilish huquqi beriladi;
- tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining maktab faoliyatini tekshirish va ta'lim sifatini baholash bo'yicha vakolatlari bekor qilinadi;
- hududlarda eng tajribali maktab direktorlaridan iborat Direktorlar kengashlari tuziladi;
- maktab direktorlari Direktorlar kengashi tavsiyasiga asosan hududiy boshqarmalar tomonidan ochiq tanlov asosida lavozimga tayinlanadi.

**BOG'CHALARNING ISTE'MOL RATSIONIGA
ASAL QO'SHILISHI MUMKIN**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va shifoxonalar-dagi bemorlarning kunlik iste'mol ratsioniga asal mahsuloti kiritilishi mumkin.

YANGI TURDAGI STIPENDIYA TA'SIS ETILADI

Oliy ta'lim muassasalarining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, o'rmonchilik, "yashil" iqtisodiyot va gidrometeorologiya va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlaridagi eng iqtidorli talabalari uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri stipendiyasi ta'sis etiladi.

**MAKTAB-INTERNATLARDA O'QUV
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI
TASHKIL ETILADI**

Respublikaning 16 ta "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida maxsus o'quv ishlab chiqarish korxonalari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bundan ko'zlangan, maqsad – ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsonli bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish hamda kasb egallashiga ko'maklashish, ijtimoiy hayotga tayyorlab borishdan iborat.

SENTABR**1 NIMALAR
O'ZGARADI?**

NAMANGAN



TOJIKISTONGA BORMASDAN HUJJATIMNI OLDIM

CHORTOQ tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan fuqarolarning murojaatlari tezkor hal etilishida avvallari qo'lyozma shaklda taqdim etilgan tug'ilganlik, nikoh tuzilganligi va boshqa turdagi gerbli guvohnomalar bugunga kelib elektron ravishda to'ldirilib, barcha turdagi dalolatnoma yozuvlari "FHDY Yagona elektron arxivi" axborot tizimiga kiritib borilayotgani ayni muddao bo'lmoqda.

Tojikiston Respublikasi, Leninobod viloyati, Asht tumanida tug'ilgan Saodat Rahmonova taqdir taqozosi bilan yoshligida ota-onasi bilan Namangan viloyatining Chortoq tumaniga ko'chib kelgan va shu yerda umumta'lim maktabida o'qigan. Ota-onasining e'tiborsizligi sababli tug'ilganligi haqidagi guvohnomasi yo'qolib qolgan bo'lsa ko'p yillardan buyon fuqarolik pasportini olish imkoni bo'lmayotganini, hozirda uning Tojikistonda hech qanday qarindoshlari yashamasligi va u yerga borib-kelishga esa imkoni va sharoiti yo'qligini ma'lum qilib, tug'ilganlik haqidagi guvohnomasini olib berishda amaliy yordam so'rab, Chortoq tuman FHDY bo'limiga

murojaat qilgan. S. Rahmonovning murojaati belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, MDH davlatlari o'rtasida 1992-yil 23-yanvarda Minsk shahrida tuzilgan "Fuqarolik, oilaviy va jinoyi ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Konvensiyaga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi orqali Tojikiston Respublikasi Adliya vazirligiga yuborilgan edi. Ma'lum muddat ichida fuqaroning muammosi ijobiy hal etilib, unga Tojikiston Respublikasining tegishli FHDY organidan tug'ilganlik haqidagi guvohnoma takroran olib berildi.

Shoira ABDULLAYEVA, Chortoq tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi mudiri

NAMANGAN



MUDDATIDAN OLDIN PENSIYAGA CHIQISHGA HAQLI EDI, LEKIN...

NAMANGAN viloyat adliya boshqarmasi va tuman, shahar adliya bo'limlari tomonidan aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini tiklash, ularga huquqiy ko'mak berish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Boshqarma tomonidan Mingbuloq tuman, "Mulkobod" mahallasida yashovchi fuqaro A. Mamayusupovning tuman Bandlikka ko'maklashish markazi tomonidan muddatidan oldin yoshga doir pensiyaga chiqish uchun asos bo'lgan taqdimnoma berilmayotganidan noroziligini to'g'risidagi murojaati o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, "O'zgarish" maishiy-xizmat kasb-hunar kolleji tomonidan A. Mamayusupovga Prezidentimizning 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va Mehnat kodeksiga asosan ogohlantirish xati berilib, kollej ma'muriyatining buyrug'iga asosan kollejning ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shtat qisqarishi munosabati bilan Mehnat kodeksining tegishli muddasiga asosan bekor qilingan. Mazkur murojaat adliya boshqarmasi tomonidan ijobiy hal etildi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanidagi "Chek" mahallasida yashovchi fuqaro I. Yusufjonovning Prezident farmoniga asosan

to'lanishi lozim bo'lgan ustama to'lanmagani to'g'risidagi murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi. O'rganish jarayonida tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan ta'limni raqamlashtirish shu'ba xodimlariga Prezidentning "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida nazarda tutilgan ustamalar 2023-yil uchun xarajatlar smetasiga kiritilmagani sababli 2023-yil 1-yanvardan boshlab to'lab berilmagani aniqlandi. Mazkur qonunbuzilish holatini bartaraf etish yuzasidan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi rahbari nomiga taqdimnoma kiritilib, to'lanmagan oylar uchun ustama undirib berildi.

Sohibjon QODIROV, Namangan viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

QORAQALPOG'ISTON

Uzluksiz ish staji bor, ustama yo'q



BERUNIY tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli maktabgacha ta'lim bo'limi hamshiralarning uzluksiz ish staji uchun ustama mablag'ini undirib berishda amaliy yordam so'rab yo'llagan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda qaratilgan 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risida"gi nizamning 25-bandiga asosan, vrachlarga, o'rta va kichik tibbiyot xodimlariga, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimining barcha muassasalari farmatsevtika xodimlariga quyidagi ustamalar:

- uzluksiz ish staji 5 yildan 10 yilgacha bo'lganda - tarif stavkasining 5 foizi miqdorida;
- uzluksiz ish staji 10 yildan 15 yilgacha bo'lganda - tarif stavkasining 10 foizi miqdorida;
- uzluksiz ish staji 15 yildan 20 yilgacha bo'lganda - tarif stavkasining 15 foizi miqdorida;
- uzluksiz ish staji 20 yildan ortiq bo'lganda - uzluksiz ish staji 20 yildan ortiq bo'lganda

- tarif stavkasining 20 foizi miqdorida belgilanadi, (sog'liqni saqlash muassasalari xodimlarining mazkur nizamning 24-bandida ko'rsatilgan alohida toifalari bundan mustasno), oliy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif stavkasining 30 foizi miqdorida belgilangan. Lekin, shunga qaramasdan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan mazkur xodimlarga tegishli ustama mablag'lari to'lab berilmagan. Qayd qilingan qonunchilik talablariga binoan tuman adliya bo'limi tomonidan uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan hamshiralarning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Beruniy tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, sudning 2023-yil 26-iyuldagi hal qiluv qarori bilan 89 million 903 ming 384 so'm ustama mablag'ini undirish belgilandi.

Vahob TURANIYAZOV, Beruniy tuman adliya bo'limi boshlig'i v.v.b.

SAMARQAND

Sayyor qabulda murojaatlar IJOBIIY HAL ETILDI



KATTAQO'RG'ON tumanining "Qirg'iz" mahallasida yashovchi fuqaro A. Muhammadievning arxiv hujjatlarida ism va familiyasida xatoliklar chiqayotganini bayon qilib, uni bartaraf etishda amaliy yordam so'rab qilgan murojaati adliya aralashuvi bilan qisqa fursatda ijobiy hal etildi.

Tumanda tashkil etilgan sayyor qabulda kattaqo'rg'onliklarning xuddi shunday ko'plab huquqiy muammolari tinglandi. Unda tuman aholisi asosan pensiya tizimi, meros, vasiyat va mulk huquqi, kadastr, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat va bandlik munosabatlari, davlat xizmatlari hamda bank va kredit masalalari yuzasidan adliya mas'ullari bilan ochiq muloqotda bo'ldi. "Yangihayot" mahallasida istiqomat qiluvchi Sh. Norbekova ham qonunchilikdagi tartib-taomillardan bexabarligi bois farzandining sog'lig'ini tiklashda uzoq yillardan buyon sarson bo'lib kelgan. Oilaviy sharoiti

o'g'irligi bois, farzandining ko'rish qobiliyatini yaxshilashda vaqtida davo choralarini ko'rmagan. Sayyor qabulda viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari M. Qurbonovdan qonun talablari doirasida yordam berishni so'radi. Muammo tuman mutasaddilari, jumladan, tuman tibbiyot birlashmasi mas'ullari bilan birgalikda joyida o'rganilib, fuqaroga amaliy yordam ko'rsatildi. Qabulda fuqarolardan 20 dan ortiq murojaat qabul qilindi. Shuningdek, fuqarolarga murojaatlar mazmunidan kelib chiqib, tegishli huquqiy tushuntirishlar ham berildi. Joyida davlat xizmatlari ko'rsatildi.

G'ulom ABDULAHATOV, Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

4 BONG

MANDAT e'lon qilindi. Barcha oliy ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha natijalar oynadek ravshan bo'ldi. Abituriyentlar uchun g'alvir suvdan ko'tarilgan ayni kunlardagi hayajon, omad, armonlar... Hamma-hammasi tanish, qadri. Bilimga chanqoq yoshlarimizning zafarlaridan quvonishimiz tabiiy. Yetarli ball to'play olmay kontraktga tushib qolganlarga, kontrakt chizig'idan pastda nomi bitilganlarga ruhan yengilmaslikni, yoshlikning hali juda ko'p imkoniyatlari borligini eslatmoqchimiz. Yoshlik go'zal fasl. U takror-takror gullayveradi, intilganga tole yorligi shundaki, u sizni yuksaklikka chorlayveradi. Eng muhimi, umidingizni so'ndirmang!

Test topshirishga imkon boru

o'qishga yo'qmi?

Yana bir muammo. Qiziq, kimdir test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalikka qabul qilindigiz, degan xushxabarni eshitsa-yu, ammo o'qishga ruxsat berilmasa. Aniqrog'i, test topshirib, yetarli ball to'plab, talabalikka qabul qilingan abituriyentlar orasida 10-sinfni tugatganlar ham borligi kishini taajjublantiradi.

Xushnudbek Xudoyberdiyevning telegram kanalidagi test va talabalik bilan bog'liq ana shu muammolar haqidagi sharh e'tiborimizni tortdi. 10-sinfni tugatib, talaba bo'lganlar "Endi biz o'qisak bo'ladimi?" degan savol bilan murojaat qilganda ularga "Yo'q, o'qiy olmaymiz. Qonunchilik bo'yicha talaba bo'lish uchun albatta maktab shahodatnomasi yoki litsey diplomini kerak. Bular bo'lmasa, talaba bo'lishning sira iloji yo'q" deya javob qaytargan X. Xudoyberdiyev bu vaziyatni shunday tanqidiy baholaydi:

"To'g'ri, afsuski, hali 11-sinfni tugatmasdan o'qishga topshirib, yetarli ball olganlar kasriga endi bir nechta grant va kontrakt o'rnlari bo'shab qoladi (tizimning xatoligi bu) hamda haqiqiy abituriyentlarga jabr bo'ladi.

Ammo bu yerda o'quvchilarni ayblashdan yiroqman. Shunchaki, bir necha yildan buyon shu muammo bo'lsa ham bunga aqlli, texnologik yechim topa olmayotgan mas'ul tashkilotlar aybdor.

Demak, maktab va litseylardagi o'quvchilarning aniq elektron hisobi yo'q, bo'lsa ham ularning bazasi oxirigacha integratsiya qilinmagan, filtr yaxshi ishlamagan. Ya'ni, 10-sinfni tugatib o'qishga topshirgan abituriyentlarni to'liqligicha aniqlay olish-magan.

Bu yerda xatolik Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan o'tganmi yoki Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligidanmi, bunisi bizga qorong'u. Lekin fakt shuki, mas'ullar bir necha yillik muammoga haligacha yechim topa olmayotir".

Haqli iddao. Va haqli savol tug'ildi: hali 11-sinfni tugatmasdan (shahodatnoma olmasdan), maktabning 10-sinfida o'qiyotgan o'quvchilar nega testga kiritildi? Garchi, ularning olgan balli yetarli bo'lsa ham, lekin talabalikka tavsiya etilmayotganini qanday baholash mumkin? Test sinovlarini topshirib, yetarli ball olgan 10-sinf bitiruvchilari uchun "Majburiy 11 yillik ta'limni tamomlamagan" degan ogohlantirish eslatmasi nega bu o'quvchilar oliy o'quv yurtiga kirish uchun hujjat topshirayotganda ishga solinmadi? Qonunchilik bo'yicha, talaba bo'lish uchun, albatta, 11-sinf shahodatnomasi kerakligi nega e'tibordan chetda qoldirildi? Bu e'tiborsizlik uchun javob beradigan, tovon to'laydigan mas'ul bormi? Axir test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan yoshlar orzu-umidlarining, mehnatlarining qadri yo'qmi?

Xullas, yo qonunlarimizdan to'g'ri foydalanaylik, unga amal qilaylik, yoki qonunlarimizga o'zgartish kiritaylik. Yoshlarning ikki jahon ovorasi bo'lishiga sababchi bo'lmaylik!

Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda "Endi maktabda o'qib turib ham universitetda o'qish mumkin! Maktabni tugatmasdan xalqaro universitet talabasi bo'ling!" degan undovlarga tez-tez ko'zimiz tushaypti. Finlandiya bilan hamkorlikda ochilgan poytaxtimizdagi Xalqaro Nordik universitetida ta'lim olish imkoniyati endilikda maktab o'quvchilarida ham mavjud. 9, 10 va 11-sinf o'quvchilari Xalqaro Nordik universiteti Foundation dasturini muvaffaqiyatli bitirib, universitetda o'qishni davom ettirishlari mumkin!

To'g'ri, bu chet el tajribasi. Axir, bizdagi ta'lim tizimi mutasaddilari ham anchadan buyon Finlandiya tajribasini o'rganish uchun hamkorlikni yo'lga qo'ydik, deb jar solayotgan edi-ku!



KO'ZGU

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash

MUAMMOSIGA yechim bormi?

HAR yili yangi o'quv yili boshlanishi bilan oliy ta'lim muassasalarida talabalar duch keladigan muammo bu – turar joy muammosi bo'ladi. Asosan viloyatlardan kelib tahsil oluvchi talabalar shu masalada qiyinchiliklarga duch kelishadi. So'nggi yillarda yoshlarga berilayotgan keng imkoniyatlar, kelajak avlodga bo'lgan e'tiborning ortib borishi va OTMlariga kvotalarning oshirilishi ko'plab yoshlarning ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, talabalikka tavsiya etilgan yoshlar uchun turar joyga ehtiyoji bo'lganlar soni ham oshib bormoqda. Mazkur holatning dolzarbligini inobatga olgan holda talabalar uchun munosib yashash sharoitini yaratib berish hukumat darajasiga ko'tarildi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalarini turar joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, davlat oliy ta'lim muassasalarining talabalar turar joyiga joylashish faqat davlat xizmati markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron ariza berish yo'li bilan amalga oshirilishi, talabalarga navbatni onlayn kuzatish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilishi belgilandi.

2023/2024-o'quv yilidan boshlab 1-kurs talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish ushbu qaror bilan tasdiqlangan ma'muriy reglament talabari asosida amalga oshiriladi. Shunisi quvonarliki, davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron ariza berish va to'lovlarni amalga oshirishda davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun hech qanday to'lov undirilmaydi. Bu ham talabalar uchun bir qancha qulayliklarni beradi.

Shuningdek, ustuvorlik asosida talabalar turar joylariga qabul qilinadigan ayrim toifalar ham belgilab berildi:

Xususan:

– "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalar;

– "Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "Temir daftar" va "Ayollar daftariga" kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari hamda "Yoshlar daftarida" turadigan talabalar;

– I va II guruh nogironligi bo'lgan talabalar;

– bir oiladan bakalavriat bosqichi kunduzgi ta'lim shaklida ikki yoki undan ortiq to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan oilalar farzandlari;

– xalqaro fan olimpiadalari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkaziladigan respublika fan olimpiadalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar;

– "Yil talabasi" va "Talabalar teatr studiyalari" ko'rik-tanlovlarning respublika bosqichi g'olibi bo'lgan talabalar;

– oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinining respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar;

– talabalar turar joyida talabalar kengashi raisi, qavat sardori bo'lgan talabalar.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashabbusi bilan joriy yilning 20-avgustidan 20-sentabrigacha "Talabalarga tezkor ko'mak kunlari" sifatida belgilandi. Shuningdek, OTMlarning asosiy binolari va talabalar turar joylari kirish qismlarida "Talabalar turar joylari va ijara xonadonlari bo'yicha ma'lumotlar markazlari" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bir so'z bilan aytganda, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik, talabalarni munosib kutib olish va ularni tegishli tartibda turar joy bilan ta'minlash to'liq hukumat tomonidan, xususan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nazoratga olingan.

Quvonarli tomoni shundaki, zamon talabari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlarning talab va ehtiyojlarini o'rganib, yangidan-yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda.

Ixtiyor ABDURAZZOQOV, Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti turtori

– O'RINDOSHLIK asosida ishlayotgan xodimning ish o'rnini qisqarmoqda. U qanday tartibda ishdan bo'shatiladi? Bunday vaqtda o'rindosh xodimga ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadimi?

Oygul NAZAROVA, Farg'ona viloyati

ISHDAN BO'SHATISH NAFAQASI

TO'LANADIMI?



– O'rindoshlar bilan mehnat shartnomasi, har qanday xodimni ishdan bo'shatish mumkin bo'lgan umumiy asoslardan tashqari, Mehnat kodeksining 441-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari bo'yicha ham bekor qilinishi mumkin. Bu moddada faqat o'rindoshlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilish mumkin bo'lgan ikkita o'ziga xos asoslar ko'rsatilgan. Ya'ni:

mazkur ishga o'zi uchun asosiy ish joyi bo'lgan xodim qabul qilinganda, ya'ni o'rindoshlik asosida ishlayotgan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi;

ushbu kodeks 433-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, o'rindoshlik asosida ishlashga cheklovlar joriy etilganligi munosabati bilan, ya'ni mehnat shartlariga ko'ra o'rindoshlik ishi cheklanishi belgilangan.

Birinchi asosga binoan ishdan bo'shatishga faqat o'rindoshning o'rniga mazkur ishga uning uchun ushbu ish asosiy bo'ladigan xodim qabul qilingan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Ya'ni, mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining 441-moddasi birinchi qismi bo'yicha bekor qilinishi g'ayriqonuniy bo'ladi. Agar:

ishdan bo'shatilgan o'rindosh o'rniga boshqa o'rindosh ishga qabul qilingan bo'lsa;

o'rindosh ishdan bo'shatilgandan keyin mazkur lavozim (bajarilayotgan ish) bo'sh qolib ketsa, yana vakant bo'lsa.

KASABA UYUSHMASI BILAN KELISHISH ZARURMI?

Mehnat kodeksining 442-moddasi birinchi qismi ishdan bo'shatishga kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining

oldindan roziligini olish qoidasi tatbiq etilmaydi. Sababi, ushbu kodeksning 164-moddasi birinchi qismiga ko'ra, agar jamoa kelishuvda yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasining oldindan roziligini olish nazarda tutilgan bo'lsa, mehnat shartnomasini bunday roziliksiz bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, deyilgan talab faqat ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasining bekor qilinishiga taalluqlidir. Mehnat kodeksining 441-moddasi birinchi qismi bo'yicha mehnat shartnomasining bekor qilinishi ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilinishi hisoblanmaydi.

XODIMNI OGOHLANTIRISH KERAKMI?

Mehnat kodeksining 165-moddasida nazarda tutilgan boshqa asoslardan farqli ravishda ish beruvchi o'rindoshlik asosida ishlovchi xodimni u bilan Mehnat kodeksining 441-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilish niyati to'g'risida kamida ikki hafta oldindan ogohlantirishi kerak. Yoki ish beruvchi o'rindosh xodimga shunga mutanosib pullik kompensatsiya to'lashi kerak.

BOSHQA ISH TAKLIF ETISH ZARURMI?

O'rindoshlarni Mehnat kodeksining 155-moddasida keltirilgan asoslardan biriga ko'ra yoki kodeksning 144-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari bo'yicha ishdan bo'shatishda ish beruvchi xodimni xuddi shu korxonada ishga joylashtirish chorasini ko'rishi (Mehnati kodeksining

144-moddasi) va ish qidirish davrida uning o'rtacha oylik ish haqini saqlashi shartligi (Mehnati kodeksining 100-moddasi) belgilanmagan.

Bunda Mehnat kodeksining 442-moddasiga ko'ra, o'rindoshlik (ichki yoki tashqi) asosida ishlash to'g'risidagi mehnat shartnomasi ushbu kodeks 173-moddasining ikkinchi qismida hamda 441-moddasida nazarda tutilgan qo'shimcha asoslar bo'yicha bekor qilinganida xodimga ishdan bo'shatish nafaqasi ikki haftalik o'rtacha ish haqi miqdorida to'lanishi kerak.

ISHDAN BO'SHATISH TARTIBI QANDAY?

Homilador va 3 yoshga to'lmagan farzandi bor ayolni ushbu asos bo'yicha ishdan bo'shatish mumkinmi? Eski tahrirdagi Mehnat kodeksiga ko'ra, homilador ayollar bilan bog'liq holda ish beruvchi kodeksning 100-moddasi ikkinchi qismi 5-bandidan foydalanishga haqli emas edi. Homilador o'rindoshni ishdan bo'shatish mumkin emas edi. Sababi, o'rindoshlarga mehnat qonunchiligi bilan belgilangan kafolatlar tatbiq etiladi. Shuningdek, homilador ayollar va 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga (korxonaning butunlay tugatilishi hollari bundan mustasno) yo'l qo'yilmas edi.

Buning uchun bu asosiy ish bo'ladigan boshqa xodimni ishga qabul qilish homilador xodima – o'rindosh bilan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qilmas edi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 408-409-moddalarini ko'rib chi-

qadigan bo'lsak, cheklovlarida faqatgina homilador ayollar va 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo'l qo'yilmasligi belgilanganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, Mehnat kodeksining 409-moddasi birinchi qismidagi uch yoshgacha bolasi bor ayol yoxud uch yoshgacha bo'lgan bolani yolg'iz tarbiyalayotgan ota (vasiy) bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga faqat ushbu kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 1, 4 va 5-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha yo'l qo'yiladi, deyilgan holatlar bundan mustasno.

Demak, Mehnat kodeksining 441-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasini bekor qilishga cheklovlar yo'q ekan. Sizning savolingiz bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, Sizdagi o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodim bilan Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismi 2-bandiga ko'ra, mehnat shartnomasi bekor qilinayotgan bo'lsa, bu holda Mehnat kodeksining 165-moddasi talablaridan kelib chiqib, xodim kamida ikki oy oldin ogohlantirilishi kerak bo'ladi. Mehnat kodeksining 164-moddasi birinchi qismidagi agar jamoa kelishuvda yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasining oldindan roziligini olish nazarda tutilgan bo'lsa, mehnat shartnomasini bunday roziliksiz bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, degan talabga ham rioya qilinishi kerak.


Mehnati kodeksining 442-moddasiga ko'ra, o'rindoshlik (ichki yoki tashqi) asosida ishlash to'g'risidagi mehnat shartnomasi ushbu kodeks 173-moddasining ikkinchi qismida hamda 441-moddasida nazarda tutilgan qo'shimcha asoslar bo'yicha bekor qilinganida xodimga ishdan bo'shatish nafaqasi ikki haftalik o'rtacha ish haqi miqdorida to'lanishi kerak. Mana shu talabdan kelib chiqib, kodeksning 173-moddasi ikkinchi qismida "ish beruvchi tashabbusi" degan band borligini e'tiborga olib, xodimga ishdan bo'shatish nafaqasi ikki haftalik o'rtacha ish haqi miqdorida to'lanishi kerak.

Bunda Mehnat kodeksining 100-moddasidagi kafolatlar tatbiq etilmaydi. Sababi, mazkur kodeksning 440-moddasi ikkinchi qismida mehnat shartnomasini alohida asoslarga ko'ra bekor qilish chog'ida xodimlarning ishga joylashish davri uchun o'rtacha ish haqi faqat asosiy ish joyidagi mehnat shartnomasi bekor qilinganda saqlanadi. O'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga mehnat to'g'risidagi qonunchilikda hamda mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o'zga kafolatli to'lovlar va kompensatsiya to'lovlari to'liq hajmda berilishi belgilangan.



6 JARAYON

88 MOHIYAT

Ijtimoiy himoyaga
muhtoj aholi -DAVLAT
HIMOYASIDA

PREZIDENTIMIZNING 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, barcha viloyat va tumanlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilishi belgilandi. Ushbu agentlik tarkibiy tuzilmasiga 2023-yil 15-iyundan boshlab Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidan Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari, Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlari, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning hududiy bo'limlari, Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha respublika reabilitatsiya markazi o'tkazilishi belgilandi.

Shuningdek, Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun “Muruvvat” va “Saxovat” internat-uylari, urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar ham agentlik tizimiga o'tkazilishi belgilandi.

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvardan boshlab sog'liqni saqlash vazirligi tizimidan bolalar uylari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan mehribonlik uylari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimidan voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari agentlik tizimiga o'tkaziladi.

2024-yil 1-avgustdan boshlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari, 2025-yil 1-yanvardan boshlab esa Ichki ishlar vazirligi tizimidan muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidan Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi agentlik tizimiga o'tkaziladi.


Har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ularning ijtimoiy pasportlarini shakllantirish ushbu agentlikning asosiy vazifalari etib belgilandi. Shuningdek, ehtiyojmand aholi bilan, shu jumladan, keys-menejment usulini qo'llagan holda samarali ish tashkil qilish, ulardan ijtimoiy xizmatlar va yordam olish bo'yicha buyurtmalar qabul qilish, zaruratga qarab buyurtmalarni mas'ul vazirlik va idoralarga yuborish belgilangan. Og'ir ahvolda tushib qolgan va og'ir ahvolda tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilib borish, ular uchun ijtimoiy xizmat va yordamlarni tashkil etish ham agentlikning ustuvor vazifalaridandir.

Xurshidjon SHARIPOV, Sariosiyo tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

VAZIRLAR MAHKAMASINING 2021-yil 19-noyabrdagi “Aholiga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar berish sohasiga axborot-texnologiyalarini joriy etish to'g'risida”gi qarorida keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari markazlari orqali sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar berish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatish tartibi belgilangan.

YO'LLANMA
BERISH TARTIBI
O'ZGARGANIDAN

XABARINGIZ BORMI?



Mazkur reglamentga asosan Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar beriladi.

Davlat xizmati davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali Agentlikning tuman (shahar) tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limlari tomonidan ko'rsatiladi.

Yo'llanmalar umumiy soni sanatoriylarning mavjud o'rinlari hamda tegishli moliya yilida davlat budjetidan yo'llanmalar uchun maqsadli tartibda nazarda tutiladigan budjet mablag'lari doirasida belgilanadi.

Yo'llanmalar quyidagi toifadagi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladi:

- urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar;
- halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlari (beva erlari);
- respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;
- Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolgan shaxslar;
- yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar;
- I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'zi ojiz I guruh nogironini kuza-tib boruvchi shaxs;
- o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar;
- yoshga doir pensiya oluvchilar.

Yo'llanmalarni berish davriyligi (birlamchi murojaat etganlar bundan mustasno) quyidagilardan iborat bo'ladi:

a) har yili – navbat asosida:

- urush nogironlariga tenglashtirilgan shaxslarga;
- respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;
- Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil AES halokati sababli nogiron bo'lib qolgan shaxslarga;
- yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarga;
- o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalarga;

b) ikki yilda bir marotaba – navbat asosida:

- urush qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarga;
- halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlari (beva erlari);
- I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga, ko'zi ojiz I guruh nogironini kuza-tib boruvchi shaxsga;

v) uch yilda bir marotaba – navbat asosida yoshga doir pensiya oluvchilarga beriladi.

Avtomatik tarzda davlat xizmatlari ko'rsatiladi.

Xizmat ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan hujjatlar:

- imtiyozdan foydalanish huquqini beruvchi hujjat nusxasi;
- tibbiy ma'lumotnoma (davolovchi shifokor tomonidan beriladigan sanatoriya-sog'lomlashtirish tavsiya etiladigan ma'lumotnoma).

To'liqinjon MAHKAMOV, Namangan shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi katta mutaxassis



QISQARTIRILGAN ISH VAQTIDA XODIMNING OYLIK MAOSHI O'ZGARADIMI?

– **QISQARTIRILGAN ish vaqti sharoitlarida ishlayotgan xodimlarning ish haqi to'liq to'lanadimi?**

– Qisqartirilgan ish vaqti sharoitlarida ishlayotgan xodimlarning ish haqi normal ish vaqti uchun belgilangan to'liq hajmda to'lanadi.

Bunda bir asosiy qoidaga ahamiyat berish kerak, masalan, o'quv yili davomida o'qishdan bo'sh vaqtida ishlaydigan o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatiga haq to'lash ishlab berilgan vaqtga mos ravishda yoki ishlab chiqargan mahsulotiga qarab amalga oshiriladigan hollarda ish haqi to'liq to'lanmaydi.

QO'SHIMCHA TO'LOV BELGILANADIMI?

– **Bir necha lavozimda ishlaganda yoki ish hajmi ko'payganda xodimning asosiy lavozimdagi ish haqiga qo'shimcha to'lov belgilanadimi?**

– Bir necha lavozimda ishlaganda yoki ish hajmi ko'payganda xodimga qo'shimcha to'lov belgilanishi mumkin.

Bunda budjetdan moliyalashtirilmaydigan tashkilot xodimlari uchun – bir lavozimda haqiqatda bajarilgan ishga to'g'ri keladigan ish haqi miqdorida;

budjet tashkilotlari xodimlari uchun – bir necha lavozimda ishlaganlik uchun maoshining ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda qo'shimcha to'lov belgilanishi mumkin.

Vaqtincha yo'q bo'lgan xodimning majburiyatlarini bajarish vazifasi uning lavozimdagi o'rinbosari zimmasiga asosiy ishdan ozod etilmagan holda yuklatilganda qo'shimcha to'lov amalga oshirilmaydi.

ISH VAQTIDAN TASHQARI ISHGA HAM PUL TO'LANADIMI?

– **Xodimlarga asosiy ish vaqtidan tashqari ishlagani uchun qancha miqdorda ish haqi to'lanishi lozim?**

– Ish vaqtidan tashqari ish uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi.

Jamoa shartnomasida, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra tashkilot rahbari (ish beruvchi) tomonidan qabul qilingan ichki hujjatda, mehnat shartnomasida ish vaqtidan tash-

qari ish uchun qo'shimcha to'lovlarning yuqoriroq miqdorlari nazarda tutilishi mumkin.

ISH BERUVCHIGA JAVOBGARLIK BORMI?

– **Ish beruvchi tomonidan xodimlarning ish haqini to'lash kechiktirilgani uchun biron-bir javobgarlik mavjudmi?**

– Tashkilot rahbari (ish beruvchi) ish haqini to'lash kechiktirilgani uchun xodim oldida moddiy javobgar bo'ladi.

Tashkilot rahbari (ish beruvchi) ish haqini, ta'til to'lovlari, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi to'lovlarni va (yoki) xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan boshlab to'haqiqatda hisob-kitob qilingan kunni o'z ichiga olgan muddatgacha har bir kechiktirilgan kun uchun qonunchilikda nazarda tutilgan foizlar (pulli kompensatsiya) bilan birga to'lashi shart.

HISOB-KITOB TARTIBI QANDAY?

– **Xodim ishdan bo'shaganida u bilan hisob-kitob qilish muddati qancha?**

– Mehnat shartnomasi bekor qilinganda ish beruvchi xodimga berilishi kerak bo'lgan barcha summalarni to'lashi kerak. To'lovlar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni amalga oshirilishi kerak. Agar xodim mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni ishlagan bo'lsa, tegishli summalar ushbu xodim tomonidan hisob-kitob qilish to'g'risidagi talab taqdim etilganidan keyin uch kundan kechiktirmay to'lanishi kerak.

MUKOFOT PULI BERILADIMI?

– **Xodim ishdan bo'shaganidan keyin mukofot puli olishga haqlimi?**

– Tashkilotlarda ichki hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda xodim, agar u hatto mukofot to'lanayotgan paytda ishdan bo'shagan bo'lsa ham, bir yildagi ish yakunlariga ko'ra mukofot olish huquqiga ega bo'lishi nazarda tutilishi mumkin.

ISH HAQI KIMGA BERILADI?

– **Xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqi kimlarga beriladi?**

– Xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqi uning oila a'zolariga yoki xodim vafot etgan kunda marhumning qaramog'ida bo'lgan shaxsga beriladi. Ish haqi ish beruvchiga tegishli ariza, xodimning vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma ning ko'chirma nusxasi berilgan hamda uning asl nusxasi taqdim etilgan kundan e'tiboran yetti kundan kechiktirmay to'lanadi.

OYLIK MAOSHNI NATURA SHAKLIDA TO'LASH MUMKINMI?

– **Xodimga ish haqi natura (moddiy) shaklida berilishi mumkinmi?**

– Qonunchiligimizga ko'ra, mehnatga natura shaklida haq to'lash taqiqlanadi. Biroq Hukumat qarorida istisno bo'ladigan holatlar nazarda tutilishi mumkin.

ISH HAQI QANDAY HISOBLAB CHIQILADI?

– **O'rtacha ish haqi qanday hisoblab chiqiladi?**

– Barcha hollar uchun o'rtacha ish haqi u hisoblanadigan oydan oldingi o'n ikki oyni tashkil etuvchi hisob-kitob davri yoxud agar xodim o'n ikki oydan kam ishlagan bo'lsa, amalda ishlangan davr uchun xodimga hisoblangan ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda tegishli oyning 1-kunidan 30 (31)-kuniga qadar (fevral oyida esa – 28 (29)-kunga qadar) bo'lgan davr oxirgi kunni ham qo'shganda kalendar oy deb hisoblanadi.

TO'LIQSIZ ISH VAQTI NIMA?

– **To'liqsiz ish vaqtida xodimning mehnatiga haq to'lash qanday amalga oshiriladi?**

– To'liqsiz ish vaqti to'liqsiz ish kuni, to'liqsiz ish haftasi, to'liqsiz ish kunining va to'liqsiz ish haftasining qo'shilishi bo'lishi mumkin. Bunday tartibda ishlaydigan xodimlarning mehnatiga haq to'lash xodimning ishlab berilgan vaqtiga mos ravishda yoki haqiqatda ishlab chiqargan mahsulotiga qarab amalga oshiriladi.

8 ADABIY AYVON

DOTSENT Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol, shu qadar dilkashi, uni ko'rgan kishi har faslining o'z husn-latofati bor degan gapni yil fasllari to'g'risidagina emas, umr fasllari to'g'risida ham aytsa bo'lar ekan, deb qolardi. Uning bitta-ikkita qora tuk chap berib qolgan oppoq cho'qqi soqoli... Yopirimay, soqol ham odamga shuncha yarashadimi-ya!..

Cholni bunchalik istarasi issiq, dilkash qilgan, soqolidan tortib yurishigacha hamma narsasini, har bir harakatini chiroyli, yoqimli qilib ko'rsatgan, ehtimol, uning odamxonligi ham bo'lsa. O'zi shunaqa bo'ladi-ku: yaxshining yuzida zuluk ham xol bo'lib ko'ninadi. Ammo, lekin Muxtorxon domla nafsambiriga odamning joni edi. Uning xushfe'lligi, to'poriligi... mahallada katta-kichik hamma bilan salomlashar, yosh bilan yosh, qari bilan qari bo'lib gaplashar, xursand kishi bilan chaqchaqlashib, xafa bilan dardlashar edi. Bu odam mahalla hayotiga, har bir kishining diliga kirib, shu qadar singib ketgan ediki, otpuskaga yo komandirovkaga ketsa butun mahalla huvillab qolganday bo'lar edi. Kunlardan bir kuni mahallada duv-duv gap bo'lib qoldi: "Muxtorxon domla uylanarmishlar!.."


Domla bundan uch yil burun beva qolib, unga goh singlisi, goh uzatgan qizi qarab yurar edi. Uning niyatini eshitib mahallada xursand bo'lmagan odam qolmadi. Hech kim qarigan chog'ida juftidan qolmasin. Osonmi, kishi nima bo'lishini bilmaydi, bosh yostiqa tegishi bor. Qari odamga mahram kerak. Hali hech kim ko'rmagan bo'lsa ham, Muxtorxon domla yoqtirgani uchun juda aqlli, tamizli ayol chiqishi muqarrar bo'lgan kelinni hamma g'oyibona yaxshi ko'rib qoldi.

– Mahallamizning tolei bor ekan, – de-yishar edi. – Domla otaxonimiz edilar, kelinimiz bizga onaxon bo'ladi. Mish-mish rost bo'lib chiqdi: domla bozor qilishni, magazinga kirishni jinidan battar yomon ko'rar edi, kimdir uni univermagda ochered turganini ko'ribdi; ertasiga choyxona oldidan chamandagul to'ppi kiyib o'tdi.

Mahalla aktivlari kengashib, mahalla nomidan yaxshiroq bir to'yona qiladigan bo'lishdi. Ularning fikricha, bu narsa kuyovga ham, kelinga ham butun aholining hurmat va muhabbatini izhor qilishi kerak edi. Shu orada domla qayoqqadir ketib bir haftadan keyin paydo bo'ldi. Uning avtobusdan tushib kelayotganini ko'rgan choyxonadagi odamlar hang-mang bo'lib qolishdi; chol o'lgur soqolini, shunday chiroyli soqolini, tag-tugi bilan qirdirib tashlabdi! Achinmagan, xafa bo'lmagan odam qolmadi. U biron yoqqa borib qaytgani choyxonaga kirmasdan, katta-kichik bilan ko'rishib hol-ahvol so'ramasdan o'tmas edi, hozir choyxonaga yaqinlashganida ko'chaning narigi yuziga o'tib oldi-yu, yerga qarab, jadallaganicha o'tdi-ketdi. Uning o'zigagina emas, butun mahallaga fayz kirgizib turgan soqolini oldirgani, buning ustiga yana choyxonani chetlab o'tgani ba'zilarni tashvishga solib qo'ydi:

– Domlamizga nima bo'ldi ekan? Domlamiz nega bunaqa bo'lib qoldi ekan?..

Domlaga hech bir g'ubor qo'nishini istagan boshqalar bu ikki gunohni bir-biriga yegizib, uni oqlashga tirishdi:



(Hikoya)
Zo'ri behuda miyon meshikanad

Abdulla QAHHOR

– Domlamiz biron xayolga borib soqolini qirdirganu hozir pushaymon, uyalganidan bizga ro'para bo'lmadi. Oradan ko'p o'tmay choyxo'rlardan biri qiziq bir gap topib keldi. Bu yigit domlani shaharning narigi chekkasidagi parkda ko'ribdi. Domla, boshida chamandagul to'ppi, egnida kalta va tor shim, katak ko'yalak, yengini baland shimargan, bilagida kattakon tilla soat, o'zi yakka pivo ichib o'tirgan emish! Uning bunday odati yo'q edi, shuning uchun yigit hayron bo'lib bir oz qarab turibdi. Domla ikki shisha pivoning ustidan yuz gramm aroqni bitta otib o'rmidan turibdiyu, gulchidan kattakon guldasta sotib olib, parkning orqasidagi jinko'chaga kirib ketibdi. Bu gapni eshitib odamlarning dami ichiga tushib ketdi. Ba'zi birovlarining ko'ngliga allaqanday jirkanch, domlanning sha'niga hech to'g'ri kelmaydigan gaplar keldi... Shunda mahallaning qariyalardan Karim ota hozir ba'zi birovlarining ko'ngliga kelgan gapdan ham xunukroq bir taxminni aytib qoldi:

– Xayr, ishqilib oxiri baxayr bo'lsin, – dedi, – kelinimiz yoshga o'xshaydi...

Qiz bo'lmasa deb qo'rqaman!

Karim otaning bu taxmini, domlanning keyingi vaqtlardagi raftoriga qaraganda ehtimoldan uzoq bo'lmasa ham, odamlarga qattiq malol keldi. Bir-ikki kishi Karim otaning dilini og'ritdi. Biroq, oradan ko'p o'tmay, Karim otaning taxmini to'g'ri chiqib qoldi: "Domla o'zining studentkasi – yigirma yashar bir juvonga uylanayotgan emish degan gap tarqaldi.

To'yga yaqin qolganda kelin ko'chaning boshidagi atelega ko'yalak buyurgani kelgan ekan, nima bo'lib bundan xabar topgan ayollar ko'rgan borishdi. Kelin, darhaqiqat, yosh, lekin xuddi qiziqchilikka semirganday yum-yumaloq; egnida yengisiz qizil ko'yalak, boshida popushakning to'jiga o'xshagan, lekin qizil shlyapa, qo'lida-gi sumkasi, oyog'idagi poshnasi bir qarich tufli ham qizil. Uni adovat va nafrat bilan boshdan-oyoq kuzatgan ayollardan biri, burilib atelyedan chiqib ketar ekan:

– Xo'rozqandga o'xshamay o'll – dedi.

– Qarigan chog'ida xo'rozqand yalamay domla ham o'lsin! – dedi yana biri. Bu laqab darrov tarqalib ketdi. Domlaga qo'l urish bilan mahallaning fayzini o'g'irlagan, odamlarning dilini hamisha yoritib turadigan chiroqni so'ndirgan bu ayolni ko'rgan ham, ko'rmagan ham toshni teshadigan bir g'azab bilan yomon ko'rar edi. Bu g'azab odamlarning ko'nglidagi domlaga bo'lgan hurmat va muhabbat tuyg'usini chirita boshladi. Bora-bora domla deganda odamlarning ko'ngliga g'ashlik tushadigan bo'lib qoldi. Domla, shuni o'zi sezsa kerak, mumkin qadar odamlarning ko'ziga ko'rinmaslikka tirishadigan bo'ldi.

To'y kelinkida bo'lib o'tdi. Buni mahallada Karim otadan boshqa hech kim bilmay qoldi. Karim ota ham to'yga emas, kabob pishirib bergani chaqirilgan ekan. Bundan xabardor bo'lgan mahalla yoshlari uni hol-joniga qo'ymay, choyxonaga olib chiqishdi va to'y qanday o'tganini gapirib berishga majbur qilishdi. Karim ota "birovning sirini aytmayman" deb avval tarxashlik qildi-yu, bir-ikki savolga javob berganidan keyin qulfi-dili ochilib ketdi: ikki galibing birida peshonasiga urib, goh bo'g'ilib va goh qotib-qotib kulib, odamlarini kuldirib hikoya qildi.

To'yga kelin tomondan ellikka yaqin, kuyov tomondan sakkiz kishi aytilgan ekan, ikkala tomondan hammasi bo'lib o'n bir kishi kelibdi. Bir dutorchi, ikki ashulachi va Karim ota ham shu hisobga kirar ekan. Soat oltiga belgilangan to'y soat o'ndan oshganda boshlanibdi. Kelin birpas boshiga oq ro'mol yopinib o'tiribdi-yu, bir-ikki ryumka ichgandan keyin, alamiga chidolmay o'yinga tushibdi. Domla chapak chalibdi, ashulaga qo'shilibdi...

– Ha, aytganday, – dedi Karim ota piqirlab kulib, – domla sochlarini bo'yatibdi! Azbaroyi Xudo, kuya tushgan po'stakka o'xshaydi!.. Mayli, bo'yog' topilgan bo'lsa bo'yasin, lekin shu bo'yog' bilan qilg'ini ham bo'yashga, sochiga mos qiliqlar qilishga urinsa uncha yaxshi chiqmas ekan.

Darhaqiqat, domlanning fikr-yodi o'zini iloji boricha yosh ko'rsatishda bo'lib qoldi. U nima qilsa, nima desa shuni esdan chiqarmas, yosh ekanini ko'rsatish uchun qulay kelgan hech bir imkoniyatni qo'ldan bermas, "hali yoshsiz" degan kishiga jonini, jahonini berishga tayyor edi.

To'ydan keyin oradan bir oy o'tar-o'tmas kelin g'atali bir dardga yo'liqdi: ba'zan kechalari hadeb chuchkiradigan bo'lib qoldi, doktorga ko'rgan ekan, doktor "bu dardning davosi – dengiz havosi" debdi. Domla ertasiga ertalabdan idorama-idora yugurdi, soat to'rtga qolmasdan putyovka bilan poyezd biletini keltirib kelinga topshirdi.

Kechqurun eshik oldiga ko'kish takisi ko'ndalang bo'ldi. Domla, kuni bo'yi yelib-yugurib holdan toyganiga qaramay, ikkita og'ir chamadonni mashinaga o'zi olib chiqdi va bagajnikka o'z qo'l bilan joyladi, o'sha yengisiz qizil ko'yagini, qizil shlyapasini kiyib hovlidan yana xo'rozqand bo'lib chiqqan kelinga mashinaning eshigini ochib berdi, keyin chiqib yoniga o'tirdi. Mashina jo'nadi, jo'nadi-yu, tezlab do'ngroq ko'prikdan o'tishda nima bo'lib bagajnikning qopqog'i bir ko'tarildi-da, boyagi ikkala chamadon otilib chiqdi. Ikkala chamadon, xuddi bir-biri bilan chopishganday, irg'ishlab-irg'ishlab talay yergacha bordi-yu, biri yo'lining o'rtasida, ikkinchisi trouarga chiqib o'tadi. Shofyor bundan kechroq xabardor bo'ldi shekilli, mashina qir-q'ellik qadam narida to'xtadi. Mashina to'xtashi bilan domla eshikdan otilib chiqdi, chamadonlarga qarab yugurdi va ketidan chopgan shofyor, choyxonadan yugurib tushgan uch-to'rt kishining ko'magini rad qilib, har birini bir odam so'ziga ko'taradigan ikki chamadonni o'zi yakka ko'tardi va mashinaga tomon yurdi. U yarim yo'lgacha chamadonlarni azo ko'tarib, bardam qadam tashlab bordi-yu, undan nari rangi oqarib, tizzalari qaltirab tentiray boshladi, shundoq bo'lsa ham, nomus kuchli, bir iloj qilib mashinaga yetib bordi, chamadonlarni qo'ydi-yu, birdan ko'zlarini ishqab, mashinaga kirib ketdi. Shofyor chamadonlarni yaxshilab joyladi.

Mashina qo'zg'aldi, qo'zg'aldi-yu, o'n-o'n besh qadam yurmasdan, birdan eshigi ochildi, xo'rozqand dodlaganicha o'zini yerga otib, ikki-uch yumalab ketdi. Odam yig'ildi. Xo'rozqandni ko'tarib olishdi. Xo'rozqand gapirolmas, dir-dir titrab, kishnaganday bir tovush chiqarar va qo'l bilan mashinani ko'rsatar edi. Bir necha kishi mashinaga tomon yugurdi. Shofyor qo'rqib, nima bo'lganiga tushunolmay, bir chekkada turar edi. Odamlar mashinani ochib qarashsa, domla... o'lib qolipti!

Ertasiga domlani ko'mish marosimi bo'ldi. Marosimga mahalladan odam ko'p qatnashmadi, aftidan, domla ko'p odamning qalbidan bundan bir oy burun o'lgan, ko'plar o'sha to'yni domlanning janozasi hisoblashgan edi...

E'OLON

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida" gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risida" gi nizomga muvofiq, Samarqand viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 16-avgustdagi buyrug'i bilan Samarqand shahar "Ezgu fikr" advokatlik firmasi advokati Esanov Azamat Esirgapovich (litsenziya raqami SA №000387) ning advokatlik faoliyatini amal shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi 3 oy muddatga o'tlatildi.

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0001-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jamshid G'ofurov

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mayve, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy
Tiraji – 3500
Buyurtma – 2479

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5